IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

“O`ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING MAMLAKATIMIZNING RIVOJLANISH YO’LIDAGI AHAMIYATI

To’xtayev Sardor Sulton o’g’li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro huquq fakulteti 3- bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O`zbekiston-2030 strategiyasining mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati, undagi maqsad va vazifalar sharhlanadi.

Kalit so`zlar

Strategiya, Yangi O`zbekiston, Konstitutsiya, qonun, barqarorlik, yoshlarga imkoniyat.

Mamlakatimiz o`z islohotlari yo`lida yangilangan Konstitutsiyani ishlab chiqdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 154-moddasida yuqorida qayd etilgan O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi haqidagi qoidalar qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emasligi mustahkamlandi.

Amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar Asosiy qomusimizda belgilangan davlatning majburiyatlari va ustuvor vazifalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirishni taqozo etadi. Shu sababli ham bunday ishlarni tizimli va mantiqiy izchillik asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Binobarin, mamlakatimiz keyingi istiqbolda rivojlanishi uchun amalga oshiriladigan ishlarni belgilovchi hujjat qabul qilinishi taqoz etiladi. Bugungi kunda jamoatchilik vakillari tomonidan muhokama qilinayotgan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** aynan shunday hujjatdir.

O‘zbekiston – 2030” strategiyasi loyihasida **beshta asosiy g‘oya** asos qilinganligini ko‘rishimiz mumkin:

1) aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish;
2) barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
3) aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
4) xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
5) mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash. Mazkur g‘oyalarni amalda ro‘yobga chiqarish maqsadida **5 ta** ustuvor yo‘nalish, ular doirasida **12 ta** kichik yo‘nalish hamda **100 ta** maqsadni o‘z ichiga olgan.

Birinchi ustuvor yo‘nalish har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishga bag‘ishlanib, unda **5 ta** kichik yo‘nalish va **44 ta** maqsad aks etgan. Mazkur ustuvor yo‘nalish ko‘rib chiqililayotgan strategiyaning eng katta qismi sanaladi. Unda ta’lim tizimi, aholi salomatligini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va qambag‘allikni qisqartirish, yoshlarga

oid davlat siyosati va sport yo‘nalishi, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar nazarda tutilgan.
Birinchi ustuvor yo‘nalishda aksariyat maqsadli ko‘rsatkichlar ta’lim qamrovini oshirish, ilm-fan va ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda erishish ko‘rsatkichlari **umumiy tusga ega**. Fikrimizcha, bunda asosiy e’tibor **manzilli yondashuvga** qaratilishi lozim.
Xususan, loyihada maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan qamrov darajasini **100 %** ga yetkazish nazarda tutilgan. Fikrimizcha, mazkur rejani amalga oshirishda hududlar bo‘yicha manzilli ishlash maqsadga muvofiq. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 yildagi PQ–4312-son qaroriga muvofiq 2019 yil holatiga ko‘ra 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovi *Toshkent shahrida* **102 %ni**, *Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Samarqand viloyatlarida* – **80 %dan ko‘proqni**, *Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Navoiy viloyatlarida* – **70-80 % atrofida**, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida **70 % dan kamroqni** tashkil etgan. Shu sababli maktabgacha ta’lim bilan qamrovni oshirish masalasini **aynan qamrov darajasi past bo‘lgan hududlardan** boshlash lozim.

Respublikada 2 mingta bog‘chani tashkil qilish rejasi ham qamrov darajasi past bo‘lgan hududlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (*misol uchun, Surxondaryo viloyati Denov va Oltinson tumanlarida, Buxoro viloyati Kogon va Qorako‘l tumanlarida 2019 yil holatiga 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovi 30-40 %ni tashkil etgan*).

Huddi shuningdek, birinchi ustuvor yo‘nalish doirasidagi davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, 700 ta poliklinika barpo etish, 28 ming shifo o‘rinlarini yaratish, 16 ming shifokor shtatlarini tashkil etish, 56 ming kilometr yo‘llarni qurish va ta’mirlash kabi loyihalarini amalga oshirishda ham **tegishli hududlarni belgilash** maqsadga muvofiq.
Bu kabi masalalarni **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini** muayyan yillarda amalga oshirish rejasida nazarda tutish hamda hududlarni aniqlashtirish lozim.

Yana bir muhim masala **moliyalashtirish** bilan bog‘liq. Loyihaning muayyan maqsadlari erishish uchun mablag‘ ajratish nazarda tutilgan. Misol uchun, 704 ta professional ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va moddiy- texnika bazasini takomillashtirishga 3 trillion so‘m, fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so‘m, til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san’at yo‘nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so‘m mablag‘ ajratish, amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan 4 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirish kabilar nazarda tutilgan. Fikrimizcha, agar mazkur mablag‘lar to‘liqligicha Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladigan bo‘lsa iqtisodiy asoslarini aniqlashtirish hamda budjet qonunchiligi talablarini ham inobatga olish lozim. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish Oliy Majlis tomonidan tegishli qonunni qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Har qanday holda ham tegishli tadbirlar iqtisodiy jihatdan samarali va mamlakatning moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olishi lozim.
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishda 2017–2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida bajarilgan ishlarning tahlili, vujudga kelgan muammolar va to‘liq yoki qisman amalga oshirilmagan vazifalarning sabablarini inobatga olish lozim. Bundan tashqari, har bir soha bo‘yicha qabul qilingan manzilli hujjatlar ham chuqur tahlil

qilinishi lozim. Misol uchun, so‘nggi to‘rt yil davomida muayyan sohalarni 2030 yilga qadar rivojlantirishga qaratilgan **12 ta dasturiy hujjatlar** qabul qilingan:

- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi;
- maktabgacha, xalq, oliy ta’lim tizimlari hamda ilm-fanni rivojlantirishga oid konsepsiyalar;
- “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi;
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan hamda agrar ta’lim tizimining innovatsion rivojlanish strategiyalari;
- atrof muhitni muhofaza qilish, suv xo‘jaligini hamda o‘rmon xo‘jaligi tizimini rivojlantirish konsepsiyalari.

Umuman olganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi keyinchi yetti yilda amalga oshiriladigan muhim ishlarni belgilab berganligi sababli uni qabul qilishda chuqur tahlil va zarur asoslarga tayanish lozim. Aynan har tomonlama puxta tuzilgan va bajarilishi ehtimoli real imkoniyatdan kelib chiqadigan dasturiy hujjat ko‘zlangan maqsadlarga erishishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 martdagi «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni
4. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisod fanlari doktori, professor Nodir Jumaev: «Islohotlarimiz natijalarining xalqaro e’tirofi» nomli maqolasi 09.07.2020 https://uza.uz/uz/posts/islo-otlarimiz- natizhalarining-khal-aro-etirofi-09-07-2020.